

ERKIN A'ZAM ASARLARIDA ANTROPONIMLAR BADIHIYATI

Dilrabo Andaniyozova,*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori, dotsent***Zulayho Shaymanova,***tayanch doktorant*

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli adib Erkin A'zamning badiiy til mahorati, shuningdek, asarlarining onomastik ko'lamidan keng o'rin egallovchi antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari yoritildi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, estetik vazifa, antroponim, ism, familiya, otatism, laqab, lingvopoetika.

Аннотация. В данной статье освещается мастерство художественного языка известного писателя Эркина Азама, а также рассматриваются лингвопоэтические особенности антропонимов, занимающих значительное место в ономастическом пространстве его произведений.

Ключевые слова: художественный текст, эстетическая функция, антропоним, имя, фамилия, отчество, прозвище, лингвопоэтика.

Abstract. This article highlights the artistic language mastery of the renowned writer Erkin A'zam and examines the linguopoetic features of anthroponyms, which occupy a significant place within the onomastic scope of his literary works.

Keywords: artistic text, aesthetic function, anthroponym, personal name, surname, patronymic, nickname, linguopoetics.

Kirish. Asarlarida davrning yetilgan muammolarini dadil ko'tarib chiqib, ularni mahorat bilan badiiy talqin qilayotgan, ijodi badiiy til nuqtayi nazaridan ham katta ilmiy tadqiqotlar uchun material bo'la oladigan adib Erkin A'zamning qator hikoya va qissalarida qahramon nomlarining jiddiy estetik vazifa bajarishini ko'p kuzatish mumkin. Ayniqsa, ijodkorning ismlardan badiiy maqsad uchun foydalanishida hamda laqablarni atoqli ot darajasiga ko'tara olishida o'ziga xos mahorati bor. Adabiyotshunos M.Qo'chqorova E.A'zam asarlaridagi ko'plab qahramon ismlarining ramziy-kinoyaviy ma'noga egaligini ta'kidlab, bir qator ism va laqablarni misol tariqasida keltiradi va ularga quyidagicha munosabat bildiradi: "Qahramonlarga tanlangan ismlar ularning kimligi, qanday odamligi haqida ochiq so'zlab turibdi".

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida antroponimlarning lingvistik va lingvopoetik xususiyatlari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, E. Begmatov, A. Hojiyev, N. Mahmudov kabi olimlarning ishlarida o'zbek antroponimlarining semantik, uslubiy va madaniy xususiyatlari yoritilgan. N. Mahmudov (1997; 2025) ism qo'yish an'analari, antroponimlarning milliy tafakkur va ma'naviyat bilan bog'liqligiga alohida e'tibor qaratadi.

Badiiy matnda antroponimlarning estetik vazifasi masalasi M. Yo'ldoshevning lingvopoetika haqidagi tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olim badiiy matndagi til birliklarining, jumladan, atoqli otlarning obraz yaratish va muallif g'oyasini ifodalashdagi

o'rnini ko'rsatib beradi. Shuningdek, S. Toshaliyeva okkazonal so'z yasalishi masalalarini o'rganar ekan, badiiy matnda til birliklarining individual-uslubiy imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Erkin A'zam ijodining lingvopoetik xususiyatlari esa Sh. Toshxo'jayevaning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Tadqiqotchi adib asarlarining til va uslub jihatlarini tahlil qilib, undagi badiiy tasvir vositalarining o'ziga xosligini ochib bergan. Biroq Erkin A'zam asarlarida qo'llangan antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari alohida tadqiqot obykti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shu jihatdan mazkur maqola adib asarlaridagi ism, familiya, otaism va laqablarning badiiy-estetik vazifalarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, lingvopoetik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Erkin A'zamning hikoya va qissalarida qo'llangan antroponimlar (ism, familiya, otaism va laqablar) saralanib, ularning badiiy-estetik vazifalari tahlil qilindi. Shuningdek, antroponimlarning qahramon xarakterini ochish, muallif munosabatini ifodalash hamda asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini yoritishdagi o'rni lingvopoetik yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida matn tahlili, qiyosiy va interpretatsion metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Darhaqiqat, E.A'zam asarlaridagi qahramonlarning ismi asar badiiyatining takomilida tirkak bo'la oladigan muhim vositalardandir. Chunki adib yoritmoqchi bo'lgan ayrim hayotiy muammolarni ismlarga mahorat bilan yuklaydi. Shu tarzda badiiy niyatni "Jannat o'zi qaydadir" nomli asarda kuzatamiz. Ya'ni bu asarda muayyan davrni va o'sha davrga oid hukmron mafkurani namoyon qiluvchi ismlar qo'llaniladi. Buning o'ziga yarasha sabablari bor, albatta. Chunki bir paytlar ota-onalar eski davr siyosatiga asir bo'lib farzandlariga o'sha davr ruhiyatiga mos ismlar qo'yishgan. Bu muammo tilshunoslarning ham nazaridan chetda qolmaganini aytish mumkin. Jumladan, tilshunos olim N.Mahmudov siyosiy maqsadni ko'zlab qo'yilgan bu kabi ismlarning farzandlar hayotida muayyan noqulayliklar tug'dirgani hamda asl ismi Revo (*revolyutsiya* so'zidan qisqartirib olingan) bo'lgan insonning o'z ismini Ravshanjon deb o'zgartirgani haqida yozadi. Vaholanki olim ta'kidlaganidek, "Musulmon bolasining qulog'i tashqi dunyoga ilk daf'a muborak azon sasi bilan ochiladikim, oiladagi bu ma'raka murg'ak vujudagi islomiy va insoniy ruh tarbiyasining ibtidosidir. Shu pokiza sas ketidan beg'ubor go'dak ona tilida eshitadigan avvalgi kalom o'zining yarashliq ismi sharifidurkim, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, "tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo'yish bo'lib, uni oti bilan chaqirganlarida, u uyaladigan bo'lmasligi kerak". Darhaqiqat, urf-odatlarimizga xos yoxud unga zid holatlarda ism qo'yish badiiy asarlarda ham u yoki bu tarzda aks etganini ko'p ko'ramiz. Mazkur usul badiiy maqsad deb ataladigan emotsionallik va ekspressivlikning ro'yobida xizmat qilishi bilan birga xalqimizga xos ism qo'yish an'analarning yo'qolib ketmasligiga, qolaversa, ruscha-baynalmilal ism qo'yishning hayotda ko'p uchragani bois urfga aylanib ketishining oldini olishga

qaratilgan bir vositadir. Qahramon ismlariga yuklangan badiiy zalvorni to'kis tasavvur qilmoq uchun yashab o'tilgan katta ijtimoiy tuzumni ham to'g'ri anglash kerak bo'ladi. E.A'zam mazkur asarida "domla" nomi bilan tilga olinadigan sobiq markschi olimning fojiasini uning o'z xotinigga yozib qoldirgan xati orqali nihoyatda ta'sirchan shaklda ko'rsatib beradi. Xatda olim o'z xatolarini bir-bir sanab o'tar ekan, farzandlariga qo'ygan ismlardan qattiq afsuslanadi. Hatto o'z xotining ismini ham o'zgartirib, mafkuraviylashtirib olganidan nadomat chekadi. Butun bema'niliklarning shundan boshlanganligini anglab yetadi: *Xonim... O'chirilgan... Azizim Roza Hasan... O'chirilgan... Bibirobiya! (...) Xotin! Men sening oldingda, farzandlarimning oldida behad aybdorman. O'ylab ko'rsam, umrim xatolarga to'la ekan. Shu xatolar... adashuvlar orqasida, bilib-bilmay, sizlarning ham hayotingizni barbod qilibman. Roza Lyuksemburrga havasan men seni – Roza, Klara Setkinaga o'xshatib qizimni – Klara, yolg'iz o'g'limni esa, bilasan, o'zim umrimni bag'ishlagan g'oya yo'lboshchilarini eslab – Melis deb atadim. Shu ruhda tarbiyaladim. Balki ko'pgina bema'niliklar shundan ham boshlangandir. Bo'lmasa, menga kim qo'yib ediki... O'zim bir Jiydalidan chiqqan Jo'raqul bo'lsam!* ("Jannat o'zi qaydadir")

Xatni o'qir ekanmiz, qahramonning shaxsiy fojeasi davr bilan, hukmron mafkura bilan bog'liq katta ijtimoiy fojia ekanligini anglaymiz. Yozuvchi ismlarni millat ruhining bosh borgohi deb biladi. Unga milliy ruhning yashashi mumkin bo'lgan ustun sifatida yondashadi. Ismlar shunchaki Alidan Valini farqlash uchungina qo'yilmaganidek, ota yo onaning siyosiy-mafkuraviy qarashini ko'z-ko'z qilish uchun ishlatiladigan qurol ham emas. Har bir xalqning ismlarida o'sha ulusning ming yillik an'analari, dunyoqarashi zuhur etadi. E.A'zam tilining qudrati ham o'sha muqaddas ruhni anglamagan, angayolmagan yoxud anglashdan mahrum etilgan avlodning mahdud dunyosiga nisbatan kuchli kinoyaga boyligi bilan belgilanadi: "*O'zim bir Jiydalidan chiqqan Jo'raqul bo'lsam!*" Bu jumla shunchaki e'tirof emas. Bir qarasangiz, inson yolg'iz qolganda o'z-o'ziga ayta olishi mumkin bo'lgan achchiq haqiqatga o'xshaydi, bir qarasangiz yurakni zirqiratadigan afsus-nadomatga o'xshaydi, yana bir qarasangiz, "ko'rpangga qarab oyoq uzatsang, o'larmiding" degan xalqona iboraning erkinona ifodasiga mengzaydi.

Asarni o'qigach, shunday savol tug'iladi: "Jiydalidan chiqqan Jo'raqul" o'z e'tiroflarini nega farzandlariga, ayoliga yuzma-yuz o'tirib ayta qolmadi? Nima xalal berardi? Bu shu qadar og'ir gunohmidiki, tilga keltirib bo'lmasa? Javobini domlaning ruhiyatiga singib ketgan katta politofobiyadan qidirish kerakka o'xshaydi. Davr bichgan andozaga mos tan bo'lishga chirangan domla – siyosat o'zgarishi bilan "modasi o'tgan" dissertatsiyalarining keraksiz matohga aylanganidan ozurda bo'lgan inson. Shularni o'ylaganda, "Jiydalidan chiqqan Jo'raqul" hayotining eng dangal gapini shu so'nggi xatida yozgan bo'lsa ajab emas. U anglab yetgan bu haqiqat uning barcha yozgan narsalaridan ko'ra muhimligi bilan diqqatga molikdir. Ehtimol, hayoti davomida yo'l qo'ygan xatolarining uzri uchun bundan boshqacha yo'l topolmagandir. Biroq ana shu xat uning

insoniy qiyofasini ko'z o'ngimizga "mixlab" qo'yadi. Uning dardini, insoniy fojeasini yanada teran anglaymiz. Bu o'rinda mahoratli yozuvchining "xat" vositasidan ma'nili foydalanish mahoratini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Asarda o'zlari tushgan ma'naviy bo'hronning asl sababini anglagan faqat domlagina emas, balki farzandlar ham otasining o'tkinchi havaslari qurboniga aylanganini fahmlashadi:

Melis. Jiydalingizda oyisini "ena" deydi-ku, esingizdan chiqdimi? O'sha yoqda tug'ilganimda, men ham Melis-pelis emas, Mengliqul yo Mamatqul bo'larmidim balki... Klarangiz – Karomatmi, Karimami...

Ismalar talaffuzining matndagi "shakli" ham badiiyat bilan aloqador hodisa hisoblanadi. Ismni turlicha tovlantirib aytish orqali fikrning ta'sirchan ifodasiga erishish mumkinligi bor gap. E.A'zam ham o'z asarlarida ismni atayin "buzish" yoki ism qobig'ini o'zgartirish orqali so'zlovchi kayfiyatini aniq aks ettirishga erishadi. Quyidagi misolda o'rinli-o'rinsiz har narsaga aralashaveradigan *Rahmatulloh Jiydaliy* nomli qahramonning ismi domlaning nutqida buzib qo'llaniladi. Bunda kesatiq ma'nosi aniq seziladi. *Jiydaliy. E, e, domullo! Ovozlarinigiz baland-baland chig'di, yangamullomizga hazil qilyapsizmi deyman?*

Domulla (hovridan tushib, xijolatomuz, ammo zaharxanda bilan). Yangamullongiz bizga xotin bo'ladilar, Rahmatvoy! Siz aralashmang, bahuzur damni olavering. Siz aytgan hazilni biz ho' bir zamonlar chimildiqda qilganmiz, ukam! ("Jannat o'zi qaydadir").

Ma'lumki, "Ism shaklini o'zgartirib talaffuz qilish" badiiy asarda tasvirning tabiiyligini ta'kidlash maqsadida ishlatiladi. Erkin A'zamov asarlarida ismni o'zgartirib talaffuz qilishning asosan quyidagi turlari ko'p kuzatiladi:

1. Kattalar nutqida "yaqinlik", "hazil, ermak" yoki "erkalash, suyish" ma'nolarida ism atayin o'zgartirib talaffuz qilinadi. Bunda ismning bolalikdagi yoki ma'lum kishilar nutqidagi holati so'zlovchining nutqida saqlangan bo'ladi. Masalan:

- Ena, bu buloq deganingiz meni sarson qiladigan! Vaqirlab qaynagani qaynagan-a! Axiyri, soy tomonga burib yubordim-u ko'nglim joyiga tushganday bo'ldi. – So'ngra Zabardadga yuzlanib: – Jajad, – deydi, – chorbog'ingdan suv chiqqan, eshitgandirsan? Buloq! Shifobaxsh!

Mastura kampir o'g'lining og'ziga yopishadi.

- Hoy bola, bu nima deganing? Bu qizning ammasi atagan oyday oti bor – O'rinoy!

- Qo'yavering, ammajon. Bolalikdan meni shunday deb o'rgangan. Ismimni eplab aytolmaydi-da. Men ham buningizni "qishloqi", "Qo'polbek" deyman-ku, ko'ngliga olmaydi sira. Bu dashnomni eshitmagandek, Fozilboy "Jadad, Jadad" deya ermak qilgan uyi tomon yurdi ("Zabardad")

2. Kattalar nutqida "asabiylashish, g'azablanish, nafratlanish" kabi muayyan holatlar bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan holatni aynan ifodalash maqsad qilingan bo'ladi.

Asal xola (tusi o'zgarib). Hay, nima farqi bor? Xo'p, ana – Ro'za Hasan... (Roza Hasanovna deyish o'rniga. – D.A.)

Xonim (ijirg'anib). Zahar xola! (Asal xola deyish o'rniga – D.A.) Domla qanilar deyapman? ("Jannat o'zi qaydadir").

3. Bolalar tiliga xos xususiyatlarni aniq ifodalash hamda tabiiylikka erishish maqsadida bunday usulga murojaat qilinadi.

"Babyor, Babyor!" (Bobur deyish o'rniga – D.A.) degan chuvvillash eshitildi maydonning narigi boshidan.

– Bor endi, o'yna. Ana, o'rtoqlaring chaqiryapti, – dedi Kamolova o'g'ilchasining kiftiga asta urib ("Shovqin")

4. Boshqa millatga mansub kishilar ismini to'g'ri ayta olmaslik natijasida yoki boshqa millat tarbiyasini olgan kishilarning nutqida ham ismlar o'zgartirib talaffuz qilinadi. Bu holat badiiy asarda alohida maqsad uchun xizmat qiladi.

Partiyaviy nazoratda ishlardi u. Xudyakov Leonid. "Latif aka" derdi hamma, Xudyakovi – Xudoyakov: xudo bir, yagona degani-da. O'zbekchani qiyib qo'yardi o'ziyam.

– Tasha-a! Gde ty? – deya avval chaqirib, keyin o'zi – qo'nji uzun rezina etik kiygan, jez tishli qarimsiq bir xotin kirib keldi chodirga. – Opyat, da?!

– Kelingiz, – deb qo'ydi Toshpo'lat eshitar-eshitilmas, xijolatlikdan chetga qarab. – Ke, nima deysan? ("Shovqin").

Ba'zan badiiy asarlarda qahramon ismi fonetik jihatdan o'zgargan holda ishlatiladi. Odatda, fonetik qobig'i o'zgartirilgan antroponimlar yozuvchining badiiy-estetik maqsadiga xizmat qiladi. "Jannat o'zi qaydadir" nomli asarda *Melis* ismi goh *Melischik*, goh *Melivoy*, *Melisqul* tarzida o'zgartirib qo'llanadi. Bunda so'zlovchining *Melis* ismli qahramonga hissiy-subyektiv munosabati faollashadi. *Xonim (qo'lidagini apil-tapil jomadonga tashlab). Melischik, jonim, qayoqlarda yuribsan? Aeroportga chiqib bizlarni kutib oladimi desam... Sog'indim! Ke, bir o'pay!*

(...) Melis (g'o'ddayib). Melivoy! Endi Melivoy bo'ladi, oyivoy!

Xonim. Ha, mayli-mayli. Melivoy, voy-voy!

Melis. Va-abshe, endi Melivoy bo'ladimi, Melisqul bo'ladimi – bari bir go'r! Qachon kelindi? Boy otam ham keldilarmi? ("Jannat o'zi qaydadir")

Ba'zan badiiy asarlarda qahramon ismi qisqargan holda ishlatiladi. Qisqartirilgan antroponimlar rus tilshunosligida "onomasticheskaya kontrabanda" atamasi ostida tahlilga tortilgan.

Ma'lumki, do'st, tengdosh va dugonalar o'rtasida ismlar qisqartirilgan holda ishlatilishi ko'p kuzatiladi. Bu holat tabiiy ravishda badiiy asarga ham olib kiriladi.

Keyin daroz takkursida turgan jimjima telefon go'shagiga asta qo'l uzatdi. Dilbar!

– Zabar?! Sen nima qilib o'tiribsan u yerda? ("Zabarjad"). Aytish o'rinliki, bu tarzdagi misollar adib ijodida ko'p uchraydi. Bu esa muayyan o'rinlarda ijodkorning xalq

tili, so‘zlashuv uslubiga tayanishini, qahramonlar nutqining tabiiy chiqishini yoritishdagi maqsadini namoyon qiladi.

Qahramonlarga ism tanlashda zargarona yondashish va bu orqali o‘ziga xos subyektiv munosabat ifodalash zabardast adib, “benazir til va uslub sohibi” Erkin A‘zam mahoratining o‘ziga xos jihatlaridan biridir. Adib o‘zining ko‘plab asarlarida ismlarning ana shu tabiatidan badiiy niyatiga mos va unumli tarzda foydalangan. Binobarin, Erkin A‘zam asarlarida qo‘llangan ismlarni lingvopoetik yondashuvda tahlil qilish adib asarlariga xos bo‘lgan betakror uslubni yanada teran yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Erkin A‘zam asarlarida antroponimlar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki muhim badiiy-estetik yukni ham o‘zida mujassam etadi. Yozuvchi qahramonlarga ism tanlash, ularni o‘zgartirib qo‘llash yoki laqablar yaratish orqali personajlarning xarakteri, ruhiy holati va muallifning ularga bo‘lgan munosabatini mahorat bilan ifodalaydi. Antroponimlar asar g‘oyasini ochish, davr ruhini aks ettirish va matnning ta’sirchanligini oshirishda muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Erkin A‘zam asarlaridagi antroponimlarni o‘rganish adibning o‘ziga xos badiiy uslubini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A., Mahmudov N., Mirzayev T., Musayeva F., Odilov Y., Xudayberganova D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 4-jild.
2. Mahmudov N. O‘zimiz va so‘zimiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997. – 112b.
3. Mahmudov N. Zarif so‘z ziyorati: to‘plam. –Toshkent: Bookmany print, 2025.–134 b.
4. Toshaliyeva S. O‘zbek tilida okkazional so‘z yasalishi: –Toshkent: 1998.
5. Toshxo‘jayeva Sh. Erkin A‘zam asarlari lingvopoetikasi. (diss. avtoreferat). – Farg‘ona: 2017.
6. Юлдошев М. Бадий матнинг лингвопоетикаси. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2008. –160 б.